IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR TADQIQI

S. Komilova
Far.DU 1-bosqich magistranti
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20100905

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek tilshunosligida o‘zlashgan so‘zlar tadiqii bo‘yicha so‘z yuritiladi hamda bu mavzu bo‘yicha qilingan ilmiy ishlar tahlili beriladi.
Kalit so‘zlar: o‘zlashgan so‘zlar, o‘zbek tilshunosligi, so‘z o‘zlashtirish, olamning lisoniy manzarasi, “Devoni lug‘otit turk”, konseptosfera.

Annotatsion: The article discusses the study of borrowed words in Uzbek linguistics and provides an analysis of scientific work on this topic.
Keywords: borrowed words, Uzbek linguistics, word acquisition, linguistic landscape of the world, “Devoni lug‘otit turk”, conceptosphere.

Аннотация: В статье рассматривается изучение заимствованных слов в узбекской лингвистике и проводится анализ научных работ по этой теме.
Ключевые слова: заимствованные слова, узбекская лингвистика, усвоение слов, языковой ландшафт мира, “Devoni lug‘otit turk”, концептуальная сфера

Til paydo bo‘lganidan buyon doimiy o‘zgarish va rivojlanish jarayonida bo‘ladi. Bu jarayonning boshlanishi bor, lekin oxiri yo‘q. Agar tilda bunday o‘zgarishlar to‘xtasa, u tanazzulga yuz tutadi yoki butunlay yo‘qolib ketishi mumkin. Ming yillardan buyon davom etayotgan bu rivojlanish harakati tilning hayotiyligini ta’minlaydi, uning umrini uzaytiradi hamda shu tilda so‘zlashuvchi xalqning qadr-qimmatini saqlab qoladi. Shuning uchun ham barhayot til hech qachon bir joyda qotib qolmaydi, balki har doim harakat va o‘zgarishda bo‘ladi. Aynan shu harakat tilni asrlar osha yashab qolishiga xizmat qiladi.

Yer yuzida boshqa tillardan so‘z yoki termin qabul qilmagan mutlaqo sof tilning mavjud emasligi azaliy haqiqatdir. Tarixiy taraqqiyot silsilasida turli xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning tabiiy mahsuli sifatida tillarning bir-biriga ta’siri va lug‘at tarkibining almashinuvi doimiy kuzatilgan. Ushbu lisoniy jarayonlar ixtiyoriy ravishda yoki muayyan davriy majburiyatlar ta’sirida yuzaga kelishi mumkin. Ta’kidlash joizki, tilshunos olimlarning mazkur hodisaga nisbatan munosabati tarixan turlicha bo‘lib kelgan: ayrimlar buni til imkoniyatlarini kengaytiruvchi ijobiy omil deb baholasalar, boshqalar til sofligiga rahna soluvchi zararli jarayon sifatida talqin etadilar. Bunday qarashlarda ko‘pincha haddan tashqari radikal yondashuvlar ko‘zga tashlanadi, bu esa o‘zlashma so‘zlar borasida me’yor va obyektiv omillarni hamda til rivojining tabiiy qonuniyatlarini inobatga olmaslik natijasidir. Professor N.Mahmudov o‘z asarlarining birida shunday ma’lumotni qayd etadi: “National Geographic” jamiyati tomonidan tashkil etilgan ekspeditsiya yaqinda Hindistonda avval fanga ma’lum bo‘lmagan koro tilini aniqladi va bu tilni dunyodagi 6909-til sifatida qayd etdi (“Ishonch” gazetasi, 2010-yil 7-oktabr). Ta’kidlash lozimki, Yer yuzidagi ana shunday katta miqdordagi tillar orasida bironta ham mutlaqo sof til yo‘q. Hamma zamonlarda bir tildan boshqasiga muayyan miqdorda so‘z o‘tib turgan”[1].

Ochiq tan olish kerakki, o‘zga tillardan so‘z o‘zlashtirish jarayoni qabul qiluvchi tilning lisoniy olam manzarasiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Biroq tildagi mavjud muvozanatni saqlash maqsadida har qanday tashqi lisoniy ta’sirga qarshilik ko‘rsatishga urinish doim ham

[1] Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. — Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017. —B 152.

o‘zini oqlamaydi. Ayniqsa, masofa va vaqt tushunchalari o‘z ahamiyatini yo‘qotayotgan hozirgi globallashuv davrida bunday cheklovlarni amalga oshirish deyarli imkonsizdir.

So‘nggi yillardagi tadqiqotlar rus tilida, xususan, ingliz tilidan so‘z o‘zlashtirish jarayoni nihoyatda faollashganini va bu hodisa til taraqqiyotining yetakchi tamoyillaridan biriga aylanganini ko‘rsatmoqda. Biznes, internet, kompyuter texnologiyalari hamda elektron ommaviy axborot vositalari bilan bog‘liq G‘arb hayoti realliklarining kirib kelishi natijasida, ingliz tili leksikasi rus tili lug‘at tarkibini jadal to‘ldirib bormoqda. Bu esa jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida til rivojining qudratli omillaridan biri sifatida baholanmoqda.

O‘zbek tilshunosligida o‘zlashgan so‘lar, asosan, uchta yirik guruhga bo‘linadi: arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar, fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar hamda rus-yevropa o‘zlashmalari. Tilshunos olimlar bu borada ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borishgan. Dastlabki tadqiqot namunalarini Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida uchratishimiz mumkin, shuningdek Mahmud Zamaxshariyning arabcha-turkiycha lug‘ati “Asosul-balog‘a” va arabcha-o‘zbekcha-forscha-mo‘g‘ulcha lug‘ati “Muqaddimatul-adab”, XIII asrda yaratilgan turkiy tillarning izohli lug‘ati “Attuhfatuz-zakiyyatu fil-lug‘at-it-turkiyya” va Alisher Navoiy qalamiga mansub “Muhokamatul-lug‘atayn”, “Sab’atu abhur”[2] asarlari o‘zbek tilidagi o‘zlashmalar tadqiqiga bag‘ishlangan ilk yirik manbalar hisoblanadi.

Hozirgi o‘zbek tili leksikasidagi o‘zlashmalar bo‘yicha A.Borovkov, U.Tursunov, F.Abdullayev, S.Ibrohimov, V.Reshetov, S.Usmonova, O.Usmonov, J.Hamdamov, M.Po‘latov, M.Mirzayev, A.Ishayev, E.Begmatov, B.Bafoyev, N.Mahmudov va bir qator olimlar samarali izlanishlar olib borganlar. Xususan, “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining bir necha sonlarida ham ushbu mavzu yuzasidan ko‘plab maqolalarni uchratishimiz mumkin. Professor Nizomiddin Mahmudovning “Olamning lisoniy manzarasi va so‘z o‘zlashtirish” maqolasi yuqoridagi jurnalning 2015-yil 3-sonida nashr ettirilgan. Olim ushbu maqolada olamning lisoniy manzarasi shakllanishi va uning yillar davomida o‘sib borishi to‘g‘risida hamda so‘z o‘zlashtirishning salbiy hodisa emasligi ekanligi haqida qimmatli ma’lumotlarni berib o‘tgan. Maqolada keltirilishicha, boshqa tildan so‘z o‘zlashtirish o‘zlashtiruvchi tildagi olamning lisoniy manzarasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Muayyan tildagi olamning lisoniy manzarasidagi mavjud muvozanatni buzmaslikday maqbul maqsad bilan har qanday xorijiy o‘zlashmaga g‘ov qo‘yishga urinaverish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki bu, ayniqsa, globallashuv asri atalmish bugungi shiddatan, makonu masofani pisand etmaydigan zamonda mumkin bo‘lmagan yumushdir. Ayrim tadqiqotchilar so‘nggi yillarda rus tilida, ayniqsa, ingliz tilidan so‘z o‘zlashtirish jarayonlari juda faollashganligini ta’kidlamoqdalar, bu hodisani rus tili taraqqiyotidagi yetakchi tamoyillardan biriga aylanganligini aytmoqdalar. Biznes, internet, kompyuter texnologiyalari, elektron OAV kabilar bilan bog‘liq g‘arb hayoti realliyalari bilan birgalikda ingliz tili leksikasi katta miqdorda rus tilini to‘ldirayotgani jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida til rivojining qudratli omillaridan biri sifatida namoyon bo‘layotganini qayd etmoqdalar[3]. “Zamonaviy ilg‘or fan, texnika, texnologiyalar bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi chet so‘zlar, xususan, ingliz (amerika varianti) tili so‘zlari juda ko‘plab tillarga kirib bormoqda. Hatto yaponlar boshqa tillar ta’siriga o‘ta hushyorlik bilan qaraydigan bugungi yapon tilidagi kompyuter texnikasiga oid terminologiyaning naqd 99 foizi ingliz tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlardir[4]”.

Tabiiyki, insonning (xalqning) dunyoni bilish darajasi, uning tasavvuridagi olam manzarasi, bilimlar majmui bir joyda turmaydi, u muttasil rivojlanib boradi, natijada mazkur manzara

---

[2] Амонов М. “Бобурнома”даги изофий бирикмаларнинг лисоний тадқиқи. — Фарғона, 2020. — Б 15.

[3] Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш. // Ўзбек тили ва адабиёти, 3/2015. — Б 3-12.

[4] htm. Алпатов В.М. Зачем японцам гайрайго? /http://ru-jp.org/yaponovedy_alpatov_01.r.

tarkibida yangi-yangi tushunchalar, konseptlar paydo bo‘ladi. Boshqacha aytganda, olam manzarasi, ya’ni “konseptosfera” boyib boradi. Sh.Safarov o‘rinli qayd etganiday, “albatta, konseptosfera turg‘un hodisa emas, uning hududi doimo kengayib, insonning voqelikni idrok etishdagi ehtiyoji va imkoniyatlari o‘sib borgani sari uning konseptlar zaxirasining miqdori oshadi, uning darajasi murakkablashadi. Individlarga xos konseptosferalar, o‘z navbatida, alohida ijtimoiy guruhlar sotsiumlar, etnik guruhlar va, nihoyat, millatlar konseptosferasining tarkib topishi uchun asos bo‘ladi. Milliy konseptosfera maydonidan o‘rin olgan konseptning mundarijasi yanada kengayadi, u milliy-madaniy qimmatli birlikka aylanadi. Muayyan bir xalqning konseptosferasidagi, ya’ni milliy olam manzarasidagi ana shunday bir konsept, jo‘nroq qilib aytganda, bir tushuncha boshqa xalqning milliy olam manzarasiga o‘tishi mumkin. Bu, albatta, u yoki bu darajadagi ehtiyoj natijasida yuz beradi. Masalan, bundan yuz ellik yillar ilgari ixtiro qilingan masofadan turib ovozli aloqani ta’minlaydigan maxsus asbobni bilmaydigan xalq yoki millatni topib bo‘lmaydi, bu asbob dunyoning barcha burchaklariga, qayerda ancha oldin-qayerda nisbatan keyin kirib borib bo‘lgan. Ixtiro qilingan paytda “telefon” deb nomlangan bu asbob bugun dunyoning deyarli barcha tillarida, shu jumladan, o‘zbek tilida ham ayni nom bilan (aynan yoki muayyan fonetik variantlarda) ataladi, mazkur xorijiy nom dunyodagi aksariyat tillarga o‘zi nomlagan predmetga bo‘lgan ehtiyoj tufayli o‘zlashib bo‘lgan. Bunday o‘zlashtirish dunyo tillarining barchasida obyektiv holat bo‘lib, uning mohiyati xorijiy olam manzarasidan tushuncha o‘zlashtirishdan iborat. Tabiiyki, buning natijasida so‘z oluvchi tildagi olamning konseptual manzarasi kengayadi. Albatta, bunday o‘zlashmalar olamning lisoniy manzarasiga sezilarli darajada ta’sir qiladi, ya’ni bu manzaradagi bo‘shliq (lakuna)ni to‘ldiradi, to‘g‘irog‘i, bunga muvofiq ravishda o‘zlashtiruvchi tilning lisoniy manzarasi ham boyiydi[5].

Professor Nizomiddin Mahmudov ta’kidlaganidek, boshqa bir tildan so‘z o‘zlashtirishga salbiy hodisa sifatida qaramasligimiz darkor, albatta, bu jarayon ham o‘z me’yorida bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Амонов М. “Бобурнома”даги изофий бирикмаларнинг лисоний тадқиқи. ― Фарғона, 2020.
2. Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш. // Ўзбек тили ва адабиёти, 3/2015.
3. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. ―Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017.
4. htm. Алпатов В.М. Зачем японцам гайрайго? /http://ru-jp.org/yaponovedy_alpatov_01.r.

[5] Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш. // Ўзбек тили ва адабиёти, 3/2015. ―Б 3-12.